ANZUR PIYOZI (ALLİUM STİPİTATUM *REGEL)* NING ETNOBOTANIK AHAMIYATI VA UNDAN ANANAVIY FOYDALANISH USULLARI

Uzoqova Zubayda Javliyevna
Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida tarqalgan anzur piyozining (*Allium stipitatum* Regel) etnobotanik ma'lumotlari, mahalliy aholi tomonidan dorivor va oziq-ovqat maqsadlarida qo'llanilishi hamda ko'paytirish usullari o'rganilgan. Tadqiqotda 62 nafar respondent ishtirokida so'rovnomalar o'tkazilib, o'simlikning mahalliy nomlari va undan foydalanish an'analari tahlil qilingan. Etnobotanik ko'rsatkichlar asosida iste'mol qiymati (UV) 1,19, nisbiy iqtibos keltirish chastotasi (RFC) 0,60 ekanligi aniqlangan. Natijalar anzur piyozining mahalliy aholi hayotidagi oziq-ovqat, dorivor va xo'jalik ahamiyatini hamda an'anaviy bilimlarni saqlash zarurligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. *Allium stipitatum* Regel, anzur piyozi, etnobotanika, Anzur piyozi, dorivor o'simliklar, xalq tabobati, mahalliy bilimlar, iste'mol qiymati (UV), nisbiy iqtibos chastotasi (RFC), ko'paytirish, biologik xilma-xillik.

ETHNOBOTANICAL SIGNIFICANCE AND TRADITIONAL USES OF ALLIUM STIPITATUM REGEL (ANZUR ONION)

Uzoqova Zubayda Javliyevna
Doctoral Student, Tashkent State Agrarian University
Tashkent, Uzbekistan.

Abstract. This article examines the ethnobotanical aspects of *Allium stipitatum* Regel (known locally as "anzur onion"), which is found in the Kitob District of the Qashqadaryo Region. It explores how the local population utilizes the plant for medicinal and culinary purposes, as well as methods for its propagation. The study involved surveys with 62 respondents, analyzing the local names for the plant and the traditions surrounding its use. Based on ethnobotanical indices, the Use Value (UV) was determined to be 1.19, and the Relative Frequency of Citation (RFC) was 0.60. The findings highlight the importance of *Allium stipitatum* in the lives of the local population—serving as a food source, a medicinal remedy, and a resource for household use—and underscore the necessity of preserving this traditional knowledge.

Keywords: Allium stipitatum Regel, anzur onion, ethnobotany, medicinal plants, folk medicine, local knowledge, Use Value (UV), Relative Frequency of Citation (RFC), propagation, biodiversity.

Jahonda dorivor va efir moyli o‘simlik turlarini asrash, ularni turli iqlim va tuproq sharoitida moslashtirib yetishtirish, xomashyo manbasi sifatida keng joriy etishga doir keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan anzur piyozining agrobiologik xususiyatlari va fitokimyoviy tarkibini aniqlash, ekotiplarning genetik farqlarini tadqiq etish, organik va biologik yetishtirish usullarini takomillashtirish hamda an’anaviy tibbiyotda qo‘llaniladigan turlarning genom darajasida tahlili va ular asosida biofarmasevtik mahsulotlar yaratishga alohida e’tibor berilmoqda.


Anzur piyozi yuqori biologik va xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan shifobaxshlik xususiyatlari yuqori ko‘p yillik efemeroid dorivor o‘simlik hisoblanadi. Uning tabiiy zaxiralarini saqlash va madaniylashtirish samarali urug‘chilik texnologiyalarini ishlab chiqishni talab etadi. Biroq ushbu turning urug‘larida fiziologik dormansiyaning mavjudligi va unuvchanlikning tashqi muhit omillariga yuqori darajada bog‘liqligi uni ko‘paytirishda muhim

cheklovchi omillardan biridir. Shu sababli anzur piyozini tashqi omillarga bo‘lgan minosabati va etnobotanikasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi [1,2,3].

O‘simliklar dunyosiga mansub turli dorivor o‘simliklar qadimdan inson salomatligi profilaktikasi va turli kasalliklarga qarshi dorivor maqsadlarda ishlatiladigan an’anaviy dorivor mahsulotlarning muhim manbai bo‘lib kelgan. Mahalliy aholining o‘simliklar olami bilan doimiy aloqasi shifobaxsh resurslardan foydalanish bo‘yicha o‘ziga xos mahalliy bilimlarning rivojlanishiga olib kelgan. Bugungi kunda mavjud bo‘lgan 10-12 ming dorivor o‘simliklar turining ahamiyati o‘ta muhim. Ular to‘g‘risidagi qimmatli ma’lumotlar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda, bu ma’lumotlarni yo‘qolib ketmasligi uchun ularni hujjatlashtirish zarurdir [5; 54-55-b.].

Olib borilgan tadqiqotlarda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida uchraydigan allium stipitatum o‘simligini dorivor xususiyatlari va ko‘paytirish usullari to‘g‘risidagi etnobotanik bilimlar tadqiq qilindi. Ma’lumot to‘plash uchun asosan mahalliy tillarda olib borilgan so‘rovnoma (anketa) usuli va guruh muhokamalaridan foydalanildi. Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi hududlarida uchraydigan anzur piyozini dorivor xususiyatlari haqidagi bilimlar tahlil qilindi [4].

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, murakkab tabiiy-geografik sharoiti hamda o‘ziga xos iqlim xususiyatlari bilan ajralib turadi. Viloyat hududi asosan Hisor tog‘ tizmasi hamda Zarafshon tog‘ tizmasi ning tog‘ oldi va adir mintaqalarini o‘z ichiga oladi. Hududning dengiz va okeanlardan uzoq masofada, materik ichkarisida joylashganligi uning keskin kontinental iqlim shakllanishiga sabab bo‘lgan.



1-rasm. O‘rganilayotgan hudud xaritasi

Viloyat iqlimining shakllanishida relyef omili muhim ahamiyat kasb etadi. Tog‘li va tog‘ oldi hududlari atmosfera yog‘inlarini nisbatan ko‘proq qabul qilsa, tekislik va cho‘l zonalarida qurg‘oqchil iqlim hukm suradi. Yoz fasli uzoq davom etuvchi, issiq va quruq bo‘lib, bu davrda tropik kontinental havo massalari ustunlik qiladi. Qish mavsumida esa shimol va shimoli-g‘arbdan kirib keluvchi mo‘tadil kengliklardagi sovuq havo oqimlari havo haroratining keskin pasayishiga sabab bo‘ladi.

Qashqadaryo viloyatida yillik yog‘in miqdori nisbatan kam bo‘lib, bug‘lanish jarayoni yuqori darajada kuzatiladi. Tog‘li mintaqalarda esa yog‘in miqdori ortib, mahalliy o‘simlik qoplami va biologik xilma-xillikning shakllanishiga qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, bahor oylarida efemer va efemeroid o‘simliklarning keng tarqalishi hudud florasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Hududning tabiiy-iqlimiy sharoiti tog‘ oldi hududlarida etnobotanik resurslarning boy shakllanishiga zamin yaratgan. Bunda mahalliy aholi tomonidan dorivor, oziq-ovqatbop va xo‘jalik ahamiyatiga ega

bo‘lgan ko‘plab yovvoyi o‘simlik turlaridan qadimdan foydalanib kelinmoqda. Bunda hududining joylashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yillik yog‘in miqdori hududning geografik joylashuvi va relyefiga qarab o‘zgarib, tekislik qismlarida o‘rtacha 180-250 mm, tog‘ oldi va tog‘li hududlarda esa 400-600 mm ni tashkil etadi. Yog‘inlarning asosiy qismi kuz-qish va bahor mavsumlariga to‘g‘ri keladi.

Hududda yog‘ingarchilik yil davomida notekis taqsimlangan bo‘lib, yillik yog‘inning taxminan 40–50 foizi bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Yoz fasli juda issiq va quruq kechadi. Ayniqsa, iyul va avgust oylarida havoning nisbiy namligi 15-25 % gacha kamayadi. Havo harorati ayrim kunlari +42°C dan +45°C gacha yetishi kuzatiladi. Qish fasli nisbatan qisqa bo‘lib, yanvar oyining o‘rtacha harorati tekislik hududlarida 0°C dan +2°C gacha, tog‘ oldi hududlarida esa -2°C dan -5°C gacha pasayadi.

Tabiblar va aholi orasidagi ko‘plab mahalliy bilim tizimlari tibbiy amaliyot sifatida qaraladi. Ilmiy tabobatdan farq qiladigan har qanday qadimiy madaniyatga asoslangan tibbiyot amaliyoti an’anaviy tibbiyot deb ataladi. O‘simliklar dunyoning vakillarining aksariyati turli mamlakatlarida tabiiy dori sifatida ishlatiladi. Azaldan biotabiiy xilma xillik o‘simlik insoniyat madaniyat hayotini yaxshilovchi omildir. Ammo biz ko‘pchilik o‘simlik turlarining bizning atrof-muhitimiz uchun qanchalik muhimligini o‘zimiz bilmaymiz. Etnobotanik bilimlar va an’anaviy tibbiyot muolajalari ilmiy tadqiqotning muhim tarkibiy qismidir, ayniqsa dala ma’lumotlari va adabiyotlar diqqat bilan baholanganda uning naqadar qimmatli ekanligi ma’lum bo‘ladi. Etnobotanik tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri turli etnik o‘simliklar resurslaridan qanday foydalanishi haqidagi mahalliy bilimlarni hujjatlashtirishdir [7].

Etnobotanik tadqiqotlar odatda ozchilik va ma’lum mahalliy xalqlarga qaratilgan. Mahalliy bilim tizimlari qishloq jamoalarini yaxshilash uchun ishlayotgan rejalashtiruvchilar va olimlar uchun, shuningdek, ular kelgan madaniyatlar uchun muhimdir. Qashqadaryo viloyatining ayniqsa, uzoq

qishloqlar aholisining tog’lar bilan uzluksiz aloqasi o‘simlik resurslaridan foydalanish bo‘yicha o‘ziga xos mahalliy bilimlarning rivojlanishiga olib keladi. Shu sababli ushbu tadqiqot ishida hozirgacha saqlanib qolgan etnobotanik bilimlarga asoslangan holda Qashqadaryo viloyatining tog’li hududlarida anzur piyozi o‘simligi haqidagi integratsion ma’lumotlarni taqdim etishga qaratilgan.

Ma’lumot to‘plash asosan mahalliy tillarda so‘rovnomalar va anketelar shaklida olib borildi va Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani aholisi bilan ishlandi. Etnobotanik tadqiqotlarning muhokamasi uchun 62 nafar axborot beruvchilar (24 erkak va 38 ayol) maqsadli tanlab olindi. Etnobotanik suhbatlarda qatnashgan ma’lumot beruvchilarning yoshi 25 dan 84 yoshgacha bo‘ldi. Axborot beruvchilarning aksariyati yoki jami 25% 61-70 yoshdagilar edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, etnobotanik bilimlar yoshga qarab oshib borgan. Ushbu tendensiya odamlarning profilaktika yoki davolash uchun tabiiy mahsulotlarga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotgani, shuningdek, keksa odamlar odatda kimyoviy dori-darmonlardan jiddiyroq ta’sirga duchor bo‘lishlari bilan izohlanishi mumkin.

Ishtirokchilar orasida o‘simlikshunoslar, tadbirkorlar, o‘t va ziravorlar sotuvchilar, shifokorlar, cho‘ponlar, fermerlar, o‘rmonchilar va keksa nafaqaxo‘rlar va boshqalardan ma’lumot yig‘ildi. Axborot beruvchilarning ijtimoiy ahvoli tahlili shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning etnobotanik bilimlari va qobiliyatlari savodxonlik darajasi oshgani sayin etnobotanik ma’lumotlar pasayib borgan. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan odamlar an’anaviy tibbiyotdan ko‘ra zamonaviy tibbiyot tizimlarini afzal ko‘rishadi. Quyidagi jadval esa ushbu vaziyatni tushuntirishga yordam beradi.

1-jadval

Aholi o‘rtasida olib borilgan so‘rovnoma natijalari

Axborotchilar to‘g‘risida ma’lumotlar	**Axborotchilar soni, nafar**	**100%**	**Yosh ko‘rsatkichlari**				
			25-40	**41-50**	**51-60**	**61-70**	**71-84**


Axborotchilar jinsi							
Erkak	24	38,7		3	9	7	5
Ayol	38	61,29	5	9	14	6	4
Jami	**62**	**100**	**5**	**12**	**23**	**13**	**9**
Axborotchilar ta’lim darajasi							
Oliy ma’lumotli	14	22,58	4	6	1	2	1
O‘rta ma’lumotli	32	51,61	1	6	15	8	2
Maktabni tamomlagan	16	25,8	-	-	7	3	6
Jami	**62**	**100**	**5**	**12**	**23**	**13**	**9**
Axborotchilar ijtimoiy darajasi							
Tabiblar	4	6,45	-	1	1	2	-
Tadbirkorlar yoki zaravor sotuvchilar	6	9,67	-	1		5	-
Shifokorlar	5	8,06	3	1		1	-
Cho‘ponlar	15	24,19	-	4	8	1	2
Fermerlar	14	22,58	-	3	9	1	1
O‘rmonchilar	9	14,51	2	2	2	1	2
Nafaqadagi keksa insonlar	9	14,51	-	-	3	2	4
Jami	**62**	**100**	**5**	**12**	**23**	**13**	**9**

Aholi o‘rtasida olib borilgan so‘rovnomalarda jami 62 nafar inson (24 nafar erkak va 38 nafar ayol) ishtirok etdi. Ishtirokchilardan 4 nafari (6,45%) tabiblar, 6 nafari (9,67%) tadbirkorlar, 5 nafari (8,06%) shifokorlar, 15 nafari (24,19%)

cho‘ponlar, 14 nafari (22,58%) fermerlar, 9 nafari (14,51%) o‘rmonchilar va 9 nafari (14,51%) nafaqadagi keksa insonlarni tashkil qildi.

Axborot beruvchilarning shahardan qishloqqa qarab borganda shifobaxsh tabbiy vositalardan foydalanish koeffitsenti ortib bordi. Bunga sabab sifatida qishloq sharoitida zamonaviy tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalarini tarqoq joylashganligini olish mumkun. Shu bilan birgalikda qishloq sharoitida istiqomat qiluvchi so‘rovnoma ishtirokchilarini aksaryatini yoshi ulug‘ insonlar tashkil etadi. Ya’ni 25-40 yosh oralig‘idagilar 5 nafar (8,06%), 41-50 yosh oralig‘ida 12 nafar (19,35%), 51-60 yosh oralig‘ida 23 nafar (37,09%), 61-70 yosh oralig‘ida 13 nafar (20,96%) va 71-80 yosh oralig‘idagi esa 9 nafar (14,51%) ni tashkil qildi.

Tadqiqot natijasida anzur piyozini bargi, piyozboshi va urug‘lari shifobaxsh giyoh sifatida keng foydalanib kelinishi va bu o‘simlik ikki rangda gullashi (oq va siyohrangli turi) aniqlandi. Bu o‘simlik xalq orasida turlicha mahalliy nomlar (anzur piyoz, yovvoyi piyoz, yovvoyi sarimsoq, sassiq sarimsoq va tog‘ piyoz) bilan atalib kelinadigan ko‘p yillik efermeroid o‘simlik ekanligi takidlandi.



2-rasm. Etnobotanik tadqiqotda aniqlangan o‘simlik nomlanishlari

Tadqiqot natijalariga ko‘ra so‘rovnoma ishtirokchilar anzur piyozini (Allium stipitatum Regel) ni turli nomlar bilan atashi aniqlandi. Bunda ishtirokchilarni 62% anzur piyozi, 6% tog‘ piyozi, 19% yovvoyi sarimsoq, 10% sassiq sarimsoq va 3% yovvoyi piyoz deb nomlashlari aniqlandi.

Aholining ta’kidlashicha anzur piyozi yoz va kuz oylarida asosan piyozboshidan, urug‘i va piyozbosh bo‘laklaridan ekiladi. Yoz oyida tog‘ va tog‘oldi hududlardan kovlab kelingan piyozboshlarni yirik hajmdagilari tuzlanadi (istemol qilish maqsadida), kichik hajmdagilari esa ko‘paytirish maqsadida iyun oyida yerga ekiladi. Bu muddatda ekishdan maqsad saqlash uchun ortiqcha mablag‘ va kuch sarf qilmaslik ekanligi ta’kidlandi. O‘simlikning asosiy iste’mol organi piyozboshi bo‘lib, qayta ishlov berilgandan so‘ng tuzlama holida iste’mol qilinadi.

Etnobotanik tadqiqotlarda o'simliklarning mahalliy aholi tomonidan foydalanilish darajasini baholash uchun eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan biri istemol qiymati (UV) va nisbiy iqtibos keltirish chastotasi (RFC) hisoblanadi.

Olingan ma’lumotlar asosida o‘simlikning iste’mol qiymati hisoblandi.

$$UV = \frac{\sum U_i}{N}$$

Bunda UV-Use Value (Istemol qiymati), Ui-har bir ishtirokchi tomonidan ushbu o'simlik uchun qayd etilgan foydalanish holatlari soni, N-shtirokchilarning umumiy soni.

Bunda o‘simlikdan 74 marta foydalangan 62 ta ishtirokchining istimol qiymati kelib chiqadi.

$$UV = \frac{74}{62} = 1.19$$

So‘ngra ma’lumotlar asosida nisbiy iqtibos keltirish chastotasi ham hisoblandi.

$$RFC = \frac{FC}{N}$$

Bunda RFC – nisbiy iqtibosh keltirish, FC – o'simlikni tilga olgan ishtirokchilar soni va N – ishtirokchilarning umumiy soni. RFC qiymati 0-1 oralig'ida bo‘ladi.

$$RFC = \frac{37}{62} = 0.5968 \approx 0.60$$

O‘tkazilgan etnobotanik tadqiqot natijalariga ko'ra, mahalliy aholi orasida anzur piyozidan foydalanish an'anasi hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. So‘rovda jami 62 nafar ishtirokchi qatnashdi, shundan 37 nafari ushbu o'simlikdan oziq-ovqat va dorivor maqsadlarda foydalanishini ma'lum qildi. Natijada nisbiy iqtibos keltirish chastotasi 0,60 ni, istimol qiymati 1,19 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich anzur piyozining mahalliy aholi tomonidan yaxshi tanilgan va amaliy ahamiyatga ega o'simlik ekanligini ko'rsatadi.

So‘rovnomada faol ishtirok etgan ishtirokchilar (tabib va yoshi kattalari) fikriga qaraganda anzur piyozi xalq tabobatida og‘iz bo‘shlig‘idan chiqadigan turli toshmalar, bosh teri qavatidagi zamburug‘li kasalliklar, o‘tkir bronxit, gripp va shamollash bilan kechuvchi xastaliklarda o‘ta samarali hisoblanadi. Bundan tashqari ovqat hazm qilishdagi foydalari haqida alohida to‘xtalib, o‘tildi. Yaqin yillarda esa aholi lanshaft dizayni yaratish maqsadida ham foydalanmoqda. Fermerlar fikriga qaraganda anzur piyozi kam xarajat qilib, ko‘p foyda olsa bo‘ladigan tur sanaladi.

O‘rganilgan hududda to‘plangan etnobotanik ma’lumotlardan shunday ilmiy qarashga kelindi:

birinchidan, keksa odamlar etnobotanik bilimlarga boy inson (50-80 yosh oralig‘i) lar bo‘lib, ma’lumot taqdim qiluvchilarni ko‘p qismini tashkil qiladi. Natijada vaqt o‘tishi bilan bu bilimlar (an’anaviy tibbiyotni boy tajribasi) ni saqlab qolish imkoniyatlari kamayib borishiga olib keladi.

ikkinchidan, o‘simliklarni shifobaxshlik xossalari, yashirin sirlari odatda avloddan-avlodga o‘tib keladi ya’ni an’anaviy tibbiyot bilan shug‘ullanadigan tabiblar odatda yoshi ulug‘ insonlardir. Natijada qadimdan ma’lum bo‘lgan o‘simliklar xossalari va shifobaxshligi to‘g‘risidagi qimmatli bilimlarni qayt etib borish orqali tadqiqotlarni kuchaytirish muhim ekanligi kelib chiqadi.

uchinchidan, tadqiqot hududi dorivor o‘simlik (anzur piyozi) larga boy hisoblanadi. Lekin ular haqida mahalliy aholining ko‘p qismi yetarli darajada xabardor emasligi tadqiqotlarda ochiqlandi. Natijada dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish va ularning shifobaxshligini yoritib beradigan tadqiqotlar ko‘lamini oshirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi

XULASALAR

1. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida olib borilgan etnobotanik tadqiqotlar natijasida anzur piyozi (Allium stipitatum Regel) mahalliy aholi orasida, oziq-ovqat, xalq tabobati va manzarali o‘simlik sifatida foydalaniladigan ko‘p yillik efemeroid o‘simlik ekanligi aniqlandi.

2. So‘rovnomada ishtirok etgan 62 nafar respondentning 37 nafari anzur piyozidan oziq-ovqat va dorivor maqsadlarda foydalanishini bildirgan. O‘simlikning nisbiy iqtibos keltirish chastotasi (RFC) 0,60 ni tashkil etishi uning mahalliy aholi orasida yaxshi tanilganligini ko‘rsatdi.

3. Anzur piyozining iste’mol qiymati (UV) 1,19 ga teng ekanligi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkich o‘simlikdan foydalanishning bir nechta yo‘nalishlari mavjudligini va uning mahalliy xo‘jalik hamda turmush tarzidagi ahamiyatini ifodalaydi.

4. Tadqiqot davomida anzur piyozining barglari, piyozboshi va urug‘laridan foydalanish, shuningdek, uning oq va siyohrang gullaydigan shakllari mavjudligi haqida mahalliy aholi ma’lumotlari qayd etildi. Piyozboshlarini urug‘ va piyozbosh bo‘laklari orqali ko‘paytirish bo‘yicha an’anaviy tajribalar ham aniqlandi.

5. Etnobotanik bilimlarning asosan yoshi katta aholi vakillari orasida saqlanib qolganligi ushbu bilimlarni tizimli ravishda hujjatlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Anzur piyozining tabiiy resurslarini muhofaza qilish, ilmiy asoslangan

ko‘paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26 -noyabr “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4901-sonli qarori. Toshkent, 2020.

2. Nizomova M.U, Uzoqova Z.J. “Anzur piyozi (*Allium stipitatum* Regel) ni ko‘paytirish usullari va biologik tasnifi” // O‘zbekiston Agrar fani Xabarnomasi m

a 3. Nizomova M.U., Uzoqova Z.J. “Anzur piyozi (*Allium stipitatum Regel*) ni yetishtirish va vegetatsiyasi davri” O‘zbekiston Agrar fani Xabarnomasi № 6/1 ¢

4. Uzoqova Z.J, To‘xtayev B. Yo. Toshkent vohasi sharoitida anzur (*Allium suvoriwii*) piyozini ko‘paytirish usullari. // “Zamonaviy biologik ta’limni rivojlantirishda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2022-yil 8-aprel, 491-495 betlar

0 5. Красная книга Республики Узбекистан. (2019). Том 1: Растения и 2грибы. Ташкент: Chinor ENK, сс. 54–55.

5№ 6. Киселева Н.С. Анатомия и морфология растений. – Минск: Изд. Вышшая школа, – 1971. – С. 89-119, 2015-227.

2 7. O‘z DSt 1128: 2006. “Urug‘lik chigit” unuvchanlikni aniqlash usullar 0O‘zbekiston davlat standarti. Rasmiy nashr, Toshkent, 2006.-b. 13-16.

(8. Po‘latova A.R “Toshkent vohasi sharoitida *Lallemantia Royleana* (benth.) 2benth. ning bioekologik xususiyatlari” // Dissertatsiya ishi. Toshkent – 2026. 152 0b.

y

3

)

m

a